

---

## UCH AVLOD UCHRASHUVI



Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz yillik bayrami oldidan faxriylarga izzat-ikrom ko'rsatish va ko'ngillarini obod qilish, ularning hayot maktabi misolida yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash jamiyatimizning faol ishtirokchilariga aylantirish maqsadida Qo'shtepa tumanidagi "Yangi do'kon", "Soy bo'yi", "Quvurboshi" "Sarmazor" va "Xumdon" mahalla fuqarolar yig'inlarida "Uch avlod uchrashuvi" bo'lib o'tdi.



Tadbirda hududlarda istiqomat qiluvchi el ardog'idagi mehnat faxriylari, shuningdek, o'zlarining samarali mehnatlari bilan tumanimizda xalk xo'jaligining turli sohalarida samarali mehnat kilayotgan soha xodimlari hamda yosh avlod vakillari ishtirok etdilar.

To'kin dasturxon atrofida yig'ilgan mehmonlar diltortar kuy va qo'shiqlar sadosi ostida dildan suhbatlashdilar.

**Qo'shtepa tumani hokimligi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2021-08-25 13:19:49